

**2023-yilning I-yarim yilligida amalga oshirilgan import hajmi hamda importni qisqartirish bo'yicha ko'rيلayotgan chora-tadbirlar to'g'risida  
MA'LUMOT**

**I. Kombinat tomonidan amalga oshirilgan import tahlili.**

2023-yilning yanvar-iyun oylarida kombinat bo'yicha mahsulot va xizmatlar importi hajmi **106,9** mln. dollarni tashkil etdi.

"Navoiy KMK" AJ ning mahsulot va xizmatlar importi tarkibi quyidagicha:

1. Mashina va uskunalar – **65,7** mln. dollar (ulushi 61,5 %), shu jumladan:
  - 4 dona yuk tashuvchi magistral teplovozi - 22,8 mln. dollar;
  - 15 dona kon samosvallari – 16,0 mln. dollar;
  - 9 dona burg'ulash dastgoxi – 9,0 mln. dollar;
  - 5 dona avtogreyderlar – 5,1 mln. dollar;
  - 3 dona gusenitsali buldozer – 3,7 mln. dollar;
  - 2 dona gidravlik ekskavatori – 2,4 mln. dollar;
  - 2 maydalash uskunalari – 1,7 mln. dollar;
  - 1 dona aralashtirish-zaryadlash mashinasi – 0,5 mln. dollar;
  - va boshqa uskunalar (texnologik uskunalarni butlovchi qismlar (*beg'araz asosda olib kirilgan*) va b.) – 4,5 mln. dollar.
3. Hom-ashyo va materiallar (og'ir yuk ko'taradigan kon-shaxta texnikasi uchun shinalar) – 33,0 mln. dollar (30,9 %);
2. Butlovchilar va ehtiyyot qismlar (kon va shaxta texnikasiga ehtiyyot qismlar va beg'araz asosda olib kirilgan boshqa qismlar) – **3,7** mln. dollar (3,5%);
4. Xizmatlar – **4,4** mln. dollar (4,1 %).

Kombinatning asosiy faoliyatiga taalluqli bo'lмаган, Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar importi amalga oshirilmadi.

**II. Kombinat bo'linmalari quvvatlarida mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish.**

2023-yilda mahalliylashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha tasdiqlangan jadvalga muvofiq, joriy yilning yanvar-iyun oylarida 154 ta (jadval bo'yicha 153 ta) loyiha bo'yicha 324,0 mlrd.so'mlik yoki davr prognoziga nisbatan 100,8%ga mahsulotlar ishlab chiqarilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,6%ni tashkil etdi. Shu jumladan, mahalliylashtirish dasturi bo'yicha hisobot davrida **111** ta yangi va kengaytirilgan loyihalarda umumiyligi qiyamti **238,9** mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, davr prognozi 100,9 %ga bajarildi.

Xususan, 55x75 o‘lchamdagи yangi turdagи sharli tegirmon, masofada boshqariladigan avtomatlashtirish tizimlari asosida ishlovchi pultlar, vibratsion oziqlantiruvchi boshqaruв shkafi, yangi turdagи kon-shaxta burg’ulash texnikalari uchun ehtiyyot qismlari kabi mahsulot turlari o‘zlashtirildi.

### III. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan kooperasiya aloqalarini kengaytirish va kooperasiya hisobiga importni optimallashtirish.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida sanoat kooperasiyasi doirasida mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilingan sanoat mahsulotlar hajmi **2 529,4** mlrd. so‘mni va 2022-yilning mos davriga nisbatan 110,4% ni tashkil etdi.

Kombinatning 2023-yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi”ga asosan, import bo‘yicha olib kiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish va tarmoqlararo sanoat kooperasiyasini kengaytirish hisobiga importni qisqartirishning maqsadli ko‘rsatkichlari yanvar-iyun oylarida **46,1** mln. dollarni tashkil etdi.

Kombinat tomonidan xarid qilinishi ko‘zda tutilgan, kelib chiqishi import bo‘lgan tovarlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni elektron kooperasiya portalining “Import muqobili bo‘yicha so‘rov yuborish” bo‘limiga joylashtirish orqali ularni o‘zlashtirish bo‘yicha potentsial ishlab chiqaruvchilarni aniqlash bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

“Navoiy KMK” AJ tomonidan Vazirlar Mahkamasining tasdiqlangan reja grafigiga asosan, har yili o‘tkaziladigan hududiy sanoat va kooperasiya yarmarkalarida o‘rnatilgan tartibda ishtirok etmoqda. Xususan, “Navoiy KMK” AJ tomonidan 2023-yil 16-17 mart kunlari Jizzax viloyatida, 13-14 aprel kunlari Buxoro viloyatida, 30-31 may kunlari Samarqand viloyatida hamda 16-17 iyun kunlari Farg‘ona viloyatida o‘tkazilgan yarmarkalarda munosib ishtirok etib mahsulotlar xarid qilish bo‘yicha **453,1** mlrd. so‘mlik hamkorlik shartnomalari tuzildi.